

## O'zbekiston va Belarus yetakchilari ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi masalalarni muhokama qildilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni Bishkek shahrida o'tayotgan MDH sammiti doirasida Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalar jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar. O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'smoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda. Madaniyat, kinematografiya va sport sohasida qo'shma tadbirlar muntazam o'tkazib borilmoqda.

Davlat rahbarlari savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan choralarni ko'rish, jumladan, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi, Hududlar forumi hamda O'zbekiston va Belarus yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchrashuvini tashkil etish muhimligini qayd etdilar.

MDH va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashildi. Bo'lajak tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

**Manba**